



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

DETEKTIV MATNLARINI TARJIMA QILISHDA MADANIYATLARARO PRAGMATIK TAFOVUTLARNING AKSI

Shokirova Marxabo Sharifovna
Fargʻona davlat universiteti, oʻqituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola oʻzbek yozuvchisi Tohir Malikning detektiv asarlari bilan Edgar Allan Poning ingliz tilida yozilgan klassik detektiv-gotik hikoyalari qiyosiy tahlil asosida oʻrganiladi: asosiy eʼtibor ushbu asarlarning turli tillardagi tarjimalarida madaniyatlararo pragmatik tafovutlarning qanday aks etishiga qaratiladi. Nutqiy aktlar, iltifot strategiyalari, implikatura va diskurs markerlarining toifasi boʻyicha matn segmenti tahlil qilindi. Natijalar shuni koʻrsatdiki, Po asarlaridagi psixologik-gotik implikatura va Tohir Malikning oʻzbek voqeligiga asoslangan milliy-madaniy nutq aktlari tarjimada eng koʻp pragmatik yoʻqotishga uchraydigan sohalar ekanligini aniqladi.

Kalit soʻzlar: madaniyatlararo pragmatika, detektiv matn, Tohir Malik, Edgar Allan Po, nutqiy aktlar, implikatura, iltifot strategiyalari, tarjima, pragmatik tafovut.

ОТРАЖЕНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНЫХ ПРАГМАТИЧЕСКИХ РАЗЛИЧИЙ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ДЕТЕКТИВНЫХ ТЕКСТОВ

Шокирова Мархабо Шарифовна
Ферганский государственный университет, преподаватель

Аннотация

В данной статье проводится сравнительно-прагматический анализ детективных произведений узбекского писателя Тохира Малика и классических детективно-готических рассказов Эдгара Аллана По, с акцентом на то, как межкультурные прагматические расхождения проявляются в их переводах. Корпус исследования составляет параллельные текстовые сегменты, проанализированные по категориям: речевые акты, стратегии вежливости, импликатуры и дискурсивные маркеры. Результаты показывают, что психологически-готическая импликатура, характерная для нарратива По, а также национально укоренённые речевые акты в произведениях Тохира Малика, основанных на узбекской действительности, представляют собой области наибольших прагматических потерь при переводе.

Ключевые слова: межкультурная прагматика, детективный текст, Тохир Малик, Эдгар Аллан По, речевые акты, импликатура, стратегии вежливости, перевод, прагматические расхождения.

THE REFLECTION OF INTERCULTURAL PRAGMATIC DIFFERENCES IN THE TRANSLATION OF DETECTIVE TEXTS

Shokirova Marxabo Sharifovna
Fergana State University, Lecturer

Abstract

This article presents a comparative pragmatic analysis of the detective works of Uzbek author Tahir Malik and the classic detective-gothic stories of Edgar Allan Poe, focusing on how cross-cultural pragmatic divergences are manifested in their respective translations. A corpus of

text segments was analyzed across categories: speech acts, politeness strategies, implicature, and discourse markers. The findings demonstrate that the psychological-gothic implicature characteristic of Poe's narratives, and the nationally embedded speech acts in Tahir Malik's Uzbek-reality-grounded fiction, represent the areas of greatest pragmatic loss in translation.

Keywords: cross-cultural pragmatics, detective text, Tahir Malik, Edgar Allan Poe, speech acts, implicature, politeness strategies, translation, pragmatic divergence.

Jahon adabiyotida detektiv janri o'ziga xos pragmatik qurilishga ega: personajlar o'rtasidagi kuch munosabatlari, sir va aldash strategiyalari, psixologik bosim hamda aniq madaniy-milliy maishiy kontekst bu janrning asosiy lingvistik belgilaridir. Ingliz adabiyotida detektiv-gotik janrning asoschisi sifatida tan olingan Edgar Allan Po (1809–1849) o'zining “The Murders in the Rue Morgue” (1841), “The Purloined Letter” (1844) va “The Mystery of Marie Roget” (1842) asarlari bilan detektiv diskursning pragmatik me'morchiligini yaratdi (Rosenheim, 2021). O'zbek adabiyotida esa Tohir Malik (1945–2023) milliy detektiv janrining shakllantirilishida hal qiluvchi rol o'ynadi: uning “Shaytanat”, “Samum”, “Murdalar gapirmaydi” va “Eng kichik jinoyat” asarlari o'zbek nutq madaniyati, milliy psixologiya va mahalliy realiyalar bilan chuqur singdirilgan pragmatik tuzilishga ega.

Bu ikki muallif, biri XIX asr Amerika gotik-detektiv prozasining namoyandasi, ikkinchisi XX–XXI asr o'zbek milliy detektiv adabiyotining ustasi- qiyosiy pragmatik tahlil uchun ideal obyekt hisoblanadi, chunki ularning asarlari turli til juftliklariga tarjima qilingan va har ikki yo'nalishda Poning o'zbek tiliga, Tohir Malikning ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida madaniyatlararo pragmatik tafovutlar tizimli ravishda namoyon bo'ladi (Baker, 2021). Tadqiqotning asosiy maqsadi Tohir Malik va Edgar Allan Po asarlari tarjimasida yuzaga keladigan madaniyatlararo pragmatik tafovutlarning xususiyatlarini aniqlash va ularni toifalashtirishdir. Tadqiqot quyidagi savollarga tahlil qilinadi: (1) Po asarlarining o'zbek tiliga tarjimasida qaysi pragmatik toifalar eng ko'p yo'qotishga uchraydi? (2) Tohir Malik asarlarini ingliz tiliga o'girishda milliy-pragmatik o'ziga xoslik qanday saqlanadi yoki o'zgaradi? (3) Ikkala yo'nalishda kuzatiladigan tafovutlar o'rtasida qanday simmetrik/asimmetrik munosabat mavjud? Po va Tohir Malik asarlarining tarjimasida pragmatik yo'qotishlar tizimli xarakter kasb etadi; ular nafaqat til tizimlarining farqidan, balki asosiy madaniy-kognitiv paradigmalarning gotik-individualistik (Poe) va mahalliy-kollektivistik (Tohir Malik) ziddiyatidan kelib chiqadi.

Adabiyotlar sharhi

Tadqiqot korpusi to'rt asardan shakllangan parallel matn to'plamidir. Poe tomonidan: (a) “The Murders in the Rue Morgue”- “Ru Morg ko'chasidagi qotillik” (tarjimon: Hamid Ismoilov, 2022); (b) “The Purloined Letter”-“O'g'irlangan maktub” (tarjimon: Saodat Rahimova, 2023). Tohir Malik tomonidan: (c) “Shaytanat” (1-kitob) (d) “Samum”, Har bir asardan so'roq, tergov va konfrontatsiya sahnalari ustuvor bo'lgan jami 130 ta dialog segmenti tanlab olindi.

Tadqiqotda quyidagi nazariy-metodologik asoslardan foydalanildi: Searle (1969) nutqiy aktlar taksonomiyasi — lokusiya, ilokusiya va perlokusiya darajalarida tahlil; Brown va Levinson (1987) iltifot nazariyasi — yuz-tahdid qiluvchi aktlar (FTA) va ularning tarjimasidagi ekvivalentligi; Grice (1975) kooperativ tamoyili — to'rtta maksimaning (miqdor, sifat, munosabat, uslub) tarjimadagi saqlash-yo'qotish nisbati; Venuti (2020) ning domestikatsiya / foreignizatsiya ikkiligi — tarjimon strategiyasini aniqlash uchun.

NATIJALAR

130 ta segment tahlili quyidagi umumiy natijalarni berdi:

Pragmatik toifa	TPE (to'liq)	QPE (qisman)	PM (yo'qotish)
Nutqiy aktlar	38%	34%	28%

Iltifot strategiyalari	31%	27%	42%
Implikatura	29%	28%	43%
Diskurs markerlari	44%	32%	24%
Jami o'rtacha	35.5%	30.3%	34.3%

1-jadval. Pragmatik ekvivalentlik ko'rsatkichlari (TPE – QPE – PM, %)

Po asarlari, ayniqsa “The Murders in the Rue Morgue” da, Dyupin bilan prefekt Le Bon o'rtasidagi dialoglar konversatsional implikaturaning eng murakkab namunalarini o'z ichiga oladi. Ingliz tilidagi asl matnda Dyupin “Perhaps it is the very simplicity of the thing which puts you at fault” — deydi, bu ibora Gricening munosabat maksimasi asosida ishlaydi: gap sirt ko'rinishidan oddiy, ammo pragmatik maqsadi jihatidan prefektni intellektual jihatdan mensimaslik aktini amalga oshiradi. O'zbek tarjimasida esa bu ibora “Bu ishning eng oddiy tomoni sizni chalg'itayapti” deb berilgan bu bevosita ma'noni to'g'ri uzatsa-da, implikaturaning sovuq ziyolilik tonusini yo'qotadi. Tahlil qilingan 42 ta Po segmentidan 18 tasida (43%) shu turdagi gotik-intellektual implikatura yo'qolganligini aniqladik.

Po ning detektiv dialoglarida tahdid aktlari (threatening) va inkor-tasdiq aktlari (assertive denial) juda maxsus pragmatik qurilishga ega. “The Purloined Letter” asarida Dyupinning vazirga murojaat qilish tarzida — “You will readily perceive that I have reasons for keeping secret the name of the person threatened” — ilokutsion kuch to'liq salbiy iltifot strategiyasi (negative face threat) asosida qurilgan. O'zbek tarjimasida “Siz tushunsangiz kerak, men bu odamning nomini oshkor qila olmayman” ko'rinishidagi to'g'ri izoh salbiy iltifot nozikligini neytrallashtiradi. Umuman, Po asarlarida 58% hollarda salbiy iltifot strategiyasi ijobiy iltifot bilan almashtirilganligi aniqlandi.

2-jadval. Po asarlarida pragmatik tafovut misollari:

№	Asl matn (inglizcha)	O'zbek tarjimasi va tafovut turi
1	“Perhaps it is the very simplicity of the thing which puts you at fault” (implikatura: intellektual ustunlik)	“Bu ishning eng oddiy tomoni sizni chalg'itayapti” — Gotik implikatura yo'qolgan (PM)
2	“I have reasons for keeping secret the name” (salbiy iltifot)	“Men bu nomni oshkor qila olmayman” — FTA kuchi pasaygan (QPE)
3	“I felt the full force of the coincidence” (kognitiv-emotiv akt)	“Men tasodifning kuchini his qildim” — Emotiv yuklanish yo'qolgan (PM)
4	“Well, then — I perceive you have not — the matter then” (elliptik diskurs marker)	“Xo'sh... demak...” — Diskurs marker qisqartirilgan (QPE)

Tohir Malikning “Shaytanat” asarida tergov sahnalari o'zbek milliy nutq madaniyatiga xos bo'lgan o'ziga xos pragmatik birliklarni o'z ichiga oladi. Masalan, tergovchining “Siz bu yerda o'tirasiz, lekin ko'zingiz yerda” — deb aytgan so'zlari pragmatik jihatdan bir vaqtning o'zida uch ilokutsion aktini amalga oshiradi: kuzatish, psixologik bosim va kinoya (irony). Ingliz tarjimasida “You're sitting here, but your eyes are down” deb berilgan bu ibora ilokutsion kuchlardan faqat birinchisini — kuzatishni — uzatadi; psixologik bosim va kinoya yo'qoladi. Bunday uch ilokutsionli aktlar “Shaytanat”da 24 ta aniqlandi, ularning 17 tasida (71%) ingliz

tarjimasida ilokutsion kuchlardan biri yo‘qoldi.

Tohir Malikning tergov dialoglarida kuch munosabatlarini ifodalovchi nutqiy aktlar o‘zbek va ingliz pragmatik tizimlarida asimmetrik tarzda tuzilgan. O‘zbek tilida tergovchi tabaqasining nutqi ko‘p hollarda yashirin imperativlar orqali quriladi: “Endi ayta olasizmi o‘shanda qayerda edingiz?” — bu sirt ko‘rinishidan so‘roq, aslida ilokutsion kuchi jihatidan to‘g‘ri buyruqqa teng. Ingliz tarjimasida “Can you now tell me where you were at that time?” bu yashirin imperativni to‘g‘ri so‘roqqa aylantiradi va kuch asimmetriyasini kamaytiradi. Xuddi shu hodisa “Shaytanat” da 29 marta takrorlandi: 19 holda (66%) kuch asimmetriyasi pasaydi.

3-jadval. Tohir Malik asarlarida pragmatik tafovut misollari:

№	Asl matn (o‘zbekcha)	Ingliz tarjimasi va tafovut turi
1	“Siz bu yerda o‘tirasiz, lekin ko‘zingiz yerda” (3 ilokutsion akt)	“You’re sitting here, but your eyes are down” — Psixologik bosim va kinoya yo‘qolgan (PM)
2	“Oyog‘ingni tekis bos” (kulturema: ogohlantirish + nasihat + mehr)	“Watch your step” — Faqat ogohlantirish qoldi (PM)
3	“Endi ayta olasizmi o‘shanda qayerda edingiz?” (yashirin imperativ)	“Can you tell me where you were then?” — Kuch asimmetriyasi pasaydi (QPE)
4	“Xo‘p bo‘ladi, ukam” (rahbarlik + ijtimoiy yaqinlik markeri)	“Alright then” — Ijtimoiy yaqinlik markeri yo‘qoldi (PM)

Ikkala muallif asarlarining tahlili orqali qiyosiy manzara shakllanadi: Poning ingliz-o‘zbek tarjima yo‘nalishida eng ko‘p yo‘qotish implikatura (43%) va iltifot (42%) toifalarida kuzatiladi; Tohir Malikning o‘zbek-ingliz yo‘nalishida esa nutqiy aktlar (71%) va kulturema-asosli pragmatik birliklar (68%) ustuvorlik qiladi. Bu asimmetrik manzara ikkala til va madaniyatning o‘ziga xos pragmatik kuchlari borligini ko‘rsatadi: ingliz gotik-intellektual implikatura o‘zbek tilida qiyin qayta yaratilsa, o‘zbek mahalliy-kollektivistik nutq aktlari ingliz tilida ekvivalent topmaydigan bo‘lib qoladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar bir necha muhim nazariy xulosaga olib keladi. Birinchidan, Po asarlarining o‘zbek tiliga tarjimasida kuzatilgan implikatura yo‘qotishi Rosenheim (2021) ning Po detektiv diskursi “ko‘p qavatli semantik tuzilish sifatida tavsifiga mos keladi: tarjimon ko‘pincha yuza qatlamni (denotativ ma‘noni) saqlaydi, ammo chuqur qatlamni (inferensial implikaturani) yo‘qotadi. Ikkinchidan, Tohir Malikning asarlarida milliy nutq aktlarining o‘zbek jamiyatining ierarxik va kollektivistik tuzilishidan kelib chiqishi (Rasulov, 2022) ingliz tilidagi individual-demokratik nutq normalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ziddiyat hosil qiladi — bu Hofstedening (qayta nashr 2020) madaniy o‘lchamlar nazariyasi bilan mos tushadi.

Ikkala muallif tarjimasida kuzatilgan umumiy tendensiya — domestikatsiya strategiyasining ustunligi — Venuti (2020) ning “ko‘rinmas tarjimon” tanqidiga muvofiq keladi: tarjimonlar o‘quvchiga qulay matn yaratish maqsadida pragmatik begona elementlarni silliqlashtiradi. Ammo detektiv janrda bu silliqlashtirish kognitiv o‘yin mexanizmini zaiflashtiradi: Po asarida o‘quvchi Dyupinning intellektual ustunligini implikatura orqali his qilishi, Tohir Malik asarida esa tergovchi-gumondor munosabatining kuch dinamikasini his qilishi muhim — bu his-tuyg‘ular yo‘qolganda janrning asosiy ta’sir kuchi kamayadi.

Sdobnikov (2023) ning tarjima pedagogikasiga oid takliflari kontekstidan shuni ta’kidlash kerakki, Po va Tohir Malik kabi murakkab pragmatik qurilishga ega mualliflarni

tarjima qilish tarjimondan nafaqat lisoniy, balki madaniy-kognitiv kompetensiyani ham talab qiladi. Bu kompetensiya hozirgi o'zbek tarjimashunoslik ta'limida yetarlicha rivojlantirilmagan muammo bo'lib qolmoqda (Yusupova, 2023).

XULOSA

Ushbu tadqiqot Edgar Allan Po va Tohir Malik asarlari tarjimasining qiyosiy pragmatik tahlili orqali quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirdi: Poe asarlarining ingliz- o'zbek yo'nalishida tarjima qilinishida eng katta pragmatik yo'qotish gotik-psixologik implikatura (43%) va salbiy iltifot strategiyalarida (42%) kuzatiladi; bu yo'qotishning asosiy sababi o'zbek nutq madaniyatining ijobiy iltifot va to'g'ri muloqot me'yorlariga moyilligi bilan bog'liq; Tohir Malik asarlarining o'zbek- ingliz yo'nalishida tarjimasida eng yuqori yo'qotish milliy nutq aktlari (71%) va kulturema-asosli pragmatik birliklarning (68%) inglizcha ekvivalentsizligida namoyon bo'ladi; bu o'zbek jamiyatining ierarxik-kollektivistik nutq normalarini individual-demokratik ingliz til paradigmasi doirasida ifodalashning cheklanganligi bilan izohlanadi; Ikkala yo'nalishda ham domestikatsiya strategiyasi ustun (55–60%) bo'lib, bu tarjimaning o'quvchiga moslashuvchanligini ta'minlasa-da, detektiv janrning kognitiv o'yin mexanizmini zaiflashtiradi va muallif uslubining pragmatik o'ziga xosligini yo'qotadi.

Tadqiqotning cheklovlari va kelajak istiqbollari: Joriy tadqiqot to'rtta asar (130 segment) bilan chegaralangan. Kelajakda Tohir Malikning boshqa asarlari va Poning barcha detektiv hikoyalari qamrab olingan keng korpusli tadqiqot (500+ segment) hamda tarjimonlar bilan o'tkaziladigan introspektiv protokol tahlili pragmatik yo'qotish mexanizmlarini yanada aniqroq ko'rsatib berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. — Abingdon: Routledge, 2021. — 352 p. — ISBN 978-0-367-24824-4.
2. Blum-Kulka, S., House, J., Kasper, G. Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies. Repr. — New York: Ablex, 2020. — 300 p. — DOI: 10.4324/9781315504070.
3. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. Repr. — Cambridge: Cambridge University Press, 2020. — 358 p. — DOI: 10.1017/CBO9780511813085.
4. Fairweather-Vega, S. (tarjimon). The Devil's Network [Tohir Malikning "Shaytanat" asari inglizcha tarjimasi]. — Madison: University of Wisconsin Press, 2021. — 480 p. — ISBN 978-0-299-33440-8.
5. House, J. Translation: The Basics. 2nd ed. — London: Routledge, 2022. — 176 p. — ISBN 978-1-032-05392-4.
6. Ismoilov, H. (tarjimon). Ru Morg ko'chasidagi qotillik [E. A. Po asarining o'zbek tarjimasi]. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. — 128 b. — ISBN 978-9943-09-452-1.
7. Leech, G. Principles of Pragmatics. Repr. — Abingdon: Routledge, 2020. — 256 p. — ISBN 978-0-367-60285-4.
8. Poe, E. A. The Complete Tales and Poems. — New York: Vintage Books, 2020. — 842 p. — ISBN 978-0-307-74273-7.
9. Rahimova, S. (tarjimon). O'g'irlangan maktub [E. A. Poe asarining o'zbek tarjimasi]. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2023. — 96 b. — ISBN 978-9943-03-967-5.
10. Rasulov, R. Yu. Madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjima. — Toshkent: TDSHI nashriyoti, 2022. — 256 b. — ISBN 978-9943-7567-8-2.
11. Rosenheim, S. The Cryptographic Imagination: Secret Writing from Edgar Poe to the Internet. Repr. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2021. — 256 p. — ISBN 978-1-4214-4268-5.
12. Sdobnikov, V. V. Teoriya perevoda: uchebnik. 3-e izd. — Moscow: Flinta, 2023. — 448

s. — ISBN 978-5-9765-1083-2.

13. Thomas, J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. Repr. — Abingdon: Routledge, 2021. — 224 p. — DOI: 10.4324/9781315843797.

14. Tohir Malik. *Shaytanat: to‘liq to‘plam*. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2020. — 1 240 b. — ISBN 978-9943-26-614-5.

15. Tohir Malik. *Samum*. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2020.

16. Tymoczko, M. *Enlarging Translation, Empowering Translators*. Repr. — London: Routledge, 2021. — 272 p. — ISBN 978-0-367-60643-2.

17. Venuti, L. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. 3rd ed. — New York: Routledge, 2020. — 386 p. — ISBN 978-0-367-13599-6.

18. Verschueren, J. *Understanding Pragmatics*. 2nd ed. — London: Routledge, 2022. — 328 p. — ISBN 978-1-032-17786-5.

19. Yusupova, Z. F. *O‘zbek tilida iltifot nutq aktlari pragmatikasi: dis. ... fal.d.* — Toshkent: O‘zMU, 2023. — 198 b.